

“O‘zbekiston – millatlararo totuv va diniy bag‘rikeng mamlakat” nomli ko‘rgazma ochildi

Bag‘rikenglik o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan chinakam insoniy fazilatdir. U samimiyat, ochiq muloqot hamda vijdon va e‘tiqod tufayli vujudga keladi. Yurtimizda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida, balki zaminimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elatlar bilan do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, diniy bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga ham alohida e‘tibor qaratib kelinadi.

Bu, ayni paytda O‘zbekistonning barcha sohadagi islohotlarida ham o‘z aksini topmoqda. Xususan, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi ustuvor yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasiga bag‘ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy vazifalarga qaratayotgani yuksak e‘tiborning namunasi hamdir.

FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida “O‘zbekiston – millatlararo totuv va diniy bag‘rikeng mamlakat” ko‘rgazmasi ochildi. Ko‘rgazma A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan.



Ko‘rgazmada kutubxona va muzey fondlarida saqlanayotgan turli dinlar tarixi, urf-odatlar va marosimlari haqidagi 40 dan ortiq kitoblar namoyishga qo‘yilgan bo‘lib ular ilk matbaa usulida chop etilgan toshbosma asarlardir. Shuningdek, Fransuz sharqshunos olimi M.Kazimirskiy (1808-1887) tomonidan amalga oshirilgan Qur‘on tarjimai va tahlili, yer yuzidagi barcha xalqlarning diniy urf-odat va marosimlari yoritilgan asar, mashhur G‘arb olimlarining bir qator Sharq davlatlarida ilm-fan va san‘at sohalarida erishilgan yutuqlari haqidagi asarlari, ilmiy izlanishlari, tarjima va tahlillariga oid kitoblar namoyish etildi.



